

12-1-2018

## THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF UZBEKISTAN'S ACCESSION TO THE WORLD TRADE ORGANISATION IN THE CONDITION OF INTERNATIONAL ECONOMIC INTEGRATION

M. Vokhidova

*Tashkent State Oriental institute*

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance>

---

### Recommended Citation

Vokhidova, M. (2018) "THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF UZBEKISTAN'S ACCESSION TO THE WORLD TRADE ORGANISATION IN THE CONDITION OF INTERNATIONAL ECONOMIC INTEGRATION," *International Finance and Accounting*: Vol. 2018 : Iss. 5 , Article 16.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2018/iss5/16>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in International Finance and Accounting by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact [brownman91@mail.ru](mailto:brownman91@mail.ru).

**Voxidova M.X. - Toshkent  
davlat sharqshunoslik  
instituti o'qituvchisi, PhD**

## **XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYALASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISHI MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI**

Bugun O'zbekiston iqtisodiyotining oldida turgan muhim masalalardan biri Jahon savdo tashkilotining teng huquqli a'zosi bo'lishidir. Ammo olimlar va xalqaro savdo sohasi mutaxasislari orasida munozaraga sabab bo'layotgan muammo-O'zbekiston Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishga tayyormi va Jahon savdo tashkiloti O'zbekiston iqtisodiyotiga nima beradi, dagan masaladir. Ushbu maqolada Xitoyning Jahon savdo tashkilotiga (Jahon savdo tashkiloti) a'zo bo'lish jarayoni, a'zolikning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri yoritilgan hamda Xitoy tajribasidan foydalangan holda O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishidan keyingi iqtisodiy holat tahlili amalga oshirilgan.

**Kalit so'zlar:** Jahon savdo tashkiloti, eksport, import, ishsizlik, xalqaro savdo, xalqaro mehnat taqsimoti, raqobatbardoshlik.

Сегодня одним из важнейших вопросов, стоящих перед узбекской экономикой, является стать равноправным членом Всемирной торговой организации. Однако проблема разногласий между учеными и экспертами по международной торговле заключается в том, что Узбекистан готов вступить во Всемирную торговую организацию (ВТО) и что Всемирная торговая организация (ВТО) может дать экономике Узбекистана. В этой статье описывается процесс вступления Китая во Всемирную торговую организацию (ВТО), его влияние на экономику страны, а также экономический анализ вступления Узбекистана во Всемирную торговую организацию с использованием опыта Китая.

**Ключевые слова:** Всемирная торговая организация, экспорт, импорт, безработица, международная торговля, международное распределение труда, конкурентоспособность.

Today, one of the most important issues facing the Uzbek economy is to become an equal member of the World Trade Organization. However, the problem of controversy among scientists and international trade experts is that Uzbekistan is ready to join the World Trade Organization (WTO) and what the World Trade Organization (WTO) can give to Uzbekistan's economy. This article describes the process of China's accession to the World Trade Organization (WTO), its impact on the country's economy, and economic analysis of Uzbekistan's accession to the World Trade Organization, using China's experience. exceeded.

**Keywords:** World Trade Organization, exports, imports, unemployment, international trade, international distribution of labor, competitiveness.

## **Kirish (Introduction)**

Jahon savdo tashkiloti mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro savdo aloqalari olib boriladigan va bu boradagi nizolarni hal etish imkoniyatini beruvchi global maydon hisoblanadi. Bugungi kunda dunyoning 164 ta davlati unga a‘zo [13]. BMT mamlakatlar o‘rtasidagi siyosiy munosabatlarni, Jahon savdo tashkiloti (keyingi o‘rinlarda JST) esa ular o‘rtasidagi savdo munosabatlarini tartibga soladi.

Tashkilotning asosiy xalqaro savdo tamoyillari haq-huquqlar cheklanmagan va halol raqobat qoidalaridan iborat. Agar, adolatli raqobat qoidasi buzilsa, savdoda ham xatoliklar bo‘ladi. Barcha a‘zo davlatlar tomonidan qabul qilingan qoida va tamoyillar esa, savdodagi ehtimolliklarni kafolatlovchi omil bo‘lib xizmat qiladi hamda qulay investitsiya va sog‘lom raqobat muhitini yaratadi. Tashkilotga a‘zo bo‘lgach, ko‘pgina rivojlanayotgan va kam rivojlangan mamlakatlarda taraqqiy topgan davlatlar bilan teng huquqda savdo muzokaralarida ishtirok etish va muammolar yuzasidan murojaat qilish imkoniyati paydo bo‘lgan. Albatta, bu jarayon mazkur mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish va aholi farovonligini oshirishga yordam bergan. Umuman, JSTning asosiy vazifalari manfaatdor a‘zo davlatlar o‘rtasida ko‘p tomonlama savdo muzokaralarini o‘tkazish, savdodagi nizolarni bartaraf etish, a‘zo mamlakatlar milliy savdo siyosatini monitoring qilish, boshqa ixtisoslashgan xalqaro muassasalar bilan hamkorlik olib borishdan iborat.

## **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review)**

V.V.Baturinaning “O‘zbekistonni JSTga kirishi: milliy tarmoqlarni davlat tomonidan tartibga solish va himoya qilish”[11] nomli maqolasida “O‘zbekistonning JSTga a‘zo bo‘lishidan kutilayotgan natija aksiriyat hollarda, yaratilgan sharoitlar va dastaklarga bog‘liq bo‘ladi. Jumladan:

– iqtisodiyotni erkinlashtirish va sanoat tarmoqlarini rivojlanishini tartibga solish;

– bahoni tartibga solish va soliqni maqbul tizimini vujudga keltirish;

– alohida sektorlar va ishlab chiqarishda subsidiyalarni saqlash;

– xorij sarmoyalari jozibadorligini oshirish;

– import va eksport boj to‘lovlari tarifini tartibga solish;

– tovarlarni standartlash va sertifikatlash qilish tizimini tartibga solish;

- ishlab chiqaruvchilarni himoya qiladigan boshqa choralar ishlab chiqish kabilar” deya ta’kidlagan.

M.S. Yusupovning “Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lib kirishda MDH mamlakatlarining qishloq xo‘jaligini tartibga solish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tajribalari” [12] “JSTga a‘zo bo‘lishda mamlakatimizning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda eng ustuvor masala bo‘lib, u davlatning iqtisodiy siyosatida alohida o‘rin tutishi zarur. Bu yerda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning samarali mexanizmini shakllantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni qonun doirasida belgilab qo‘yish muhim masalalardan biri hisoblanadi” deydi.

## **Tahlil va natijalar (Analysis and results)**

Bugun O‘zbekiston iqtisodiyotining oldida turgan muhim masalalardan biri JST ning teng huquqli a‘zosi bo‘lishdir. Ammo olimlar va xalqaro savdo sohasi

mutaxasislari orasida munozaraga sabab bo'layotgan muammo-O'zbekiston JST ga a'zo bo'lishga tayyormi va JST O'zbekiston iqtisodiyotiga nima berishini tahlil qilsihdir.

Mutaxasislarning fikriga faktlar bilan yondashgan holda, biz Xitoy Xalq Respublikasining JST ga a'zo bo'lish jarayoni va undan keyingi holatni tahlil qildik va Xitoy tajribasining O'zbekiston uchun ahamiyatli jihatlari taklif etdik.

Xitoy Xalq Respublikasining (keying o'rinlarda Xitoy) JSTga a'zo bo'lishining tarixiga nazar tashlasak. Xitoy 2001 yilda JSTga a'zo bo'lgan va mamlakatning tashkilotga a'zo bo'lishi ko'pgina iqtisodiy muammolarga sabab bo'lgan.

Xitoyning JSTga a'zo bo'lishi bilan bog'liq asosiy muammo bozorga kirish imkoniyati emas, balki iqtisodiy rejimning shaffofligi, huquqiy, ma'muriy va institutsional tizimni shakllantirish, majburiyatlarini bajarish mexanizmi edi. Muzokaralarning yakuniy bosqichida XXRga qo'yilgan asosiy masalalar qatorida quyidagilarni qayd etish mumkin: eksportni rejalashtirish va eksport-import rejalarini amalga oshirish siyosatini rejalashtirish tizimini bekor qilish; bozor relslariga o'tish bahosi; tashqi savdo rejimining shaffofligi, litsenziyalash va kvota tizimi, davlat xaridlari bozori; xorijiy ishbilarmonlarga ichki bozor xizmatlaridan erkin foydalanishni erkinlashtirish; eksport subsidiyalarini olib tashlash, davlat korxonalari moliyaviy qo'llab-quvvatlashdan voz kechish va qishloq xo'jaligini himoya qilish.

Xitoy Jahon Savdo Tashkilotida ishtirok etishdan jiddiy foyda olishga tayyorgarlik ko'rayotgani bilan bir qatorda, JAHON SAVDO TASHKILOTI o'z a'zolariga muayyan huquqlarni bermasligini emas, balki ularga aniq majburiyatlarni ham kiritishni unutmash kerak edi. Xitoy 15 yillik murakkab muzokaralar olib borgandan so'ng, quyidagi kelishuvlar asosida tashkilotga a'zo bo'ladi:

#### 1. Tarifni pasaytirish

- AQSh kompaniyalari uchun zarur bo'lgan sanoat mahsulotlari uchun tariflar 25 foizdan 7 foizgacha pasayishi kerak edi.
- Amerika fermerlari uchun zarur bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining narxi 31 foizdan 14 foizgacha kamaytirilishi kerak edi.

#### Xizmatlar bilan bog'liq majburiyatlar:

- Bank sektorida, sug'urta, telekommunikatsiya va kasbiy xizmatlar kabi muhim sohalarda xizmat ko'rsatish sohasidagi qator tarmoqlarni keng miqyosda ochish.

#### 2. Tizimli islohotlar:

- oshkoralik masalalari bo'yicha keng miqyosli islohotlar, kelgusidagi qonunchilik choralari to'g'risida ogohlantirishlar va ularning tushuntirishlari, qonunlar va sud nazorati yagona qo'llanilishi Xitoyda faoliyat yuritayotgan xorijiy kompaniyalarga to'siqlarni bartaraf etishga yordam beradi.

#### 3. JST bitimlariga amal qilish:

- Xitoy savdo-sotiqning barcha jihatlari, jumladan, qishloq xo'jaligi, import litsenziyalash, intellektual mulk huquqlariga oid savdo masalalari, savdo uchun texnik to'siqlarni va savdo-sotiq sarmoyasi choralari qamrab olgan mavjud bo'lgan bir qator JST shartnomalariga sodiqdir.

#### Faqatgina Xitoy uchun savdolarni erkinlashtirish qoidalari

- Xitoyga uch yil davomida bevosita import qilish va eksport qilish huquqi.

- Investitsiyalar va import ruxsatnomalari endi texnologiya uzatishni, valyutani liberallashtirishni, eksport valyuta tushumlari bilan import qilishni va mahalliy resurslardan majburiy foydalanishni ta'qiqlovchi talablarga javob berilmasligi.

- 2005 yil 1 yanvardan oldin JST qoidalariga rioya qilmaydigan kvotalar va litsenziyalar kabi tarifsiz chora-tadbirlarning bekor qilinishi kerakligini hisobga olib, yuzlab turdagi mahsulotlar uchun kvotalar va litsenziyalar kabi tarifsiz chora-tadbirlarni (NTM) bosqichma-bosqich olib tashlash.

- qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlarini import qilish bo'yicha davlat monopoliyasini bekor qilish.

- Davlat korxonalarining faqat tijorat maqsadlarida sotib olishi va sotish talabi.

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish uchun subsidiyalarni bekor qilish va import o'rnini bosish hamda ishlab chiqarilgan tovarlarni eksport qilish uchun subsidiyalarni olib tashlash.

Iqtisodchilarning fikriga ko'ra, Xitoyning JSTga a'zo bo'lishining «Maxsus shartlari» boshqa masala bo'lib, importning o'rnini bosuvchi siyosat olib borishda, mahsulotlarning raqobatbardoshligi hamda ish bilan bandlikda muammolar yuzaga kelishi mumkinligi bashorat qilingan. [4]

Shunga qaramay, Xitoy hukumati JSTga a'zo bo'lishning qiyinchiliklaridan ko'ra, imkoniyatlari ko'proq bo'lishiga ishongan. Avvalo, JSTga a'zolik jahon iqtisodiy o'sishining sekinlashuvi sharoitida arzon bo'lgan xitoy mollari uchun cheklovli kvotalarni olib tashlash demakdir. JSTga a'zo bo'lish bilan Xitoyning xalqaro mehnat taqsimotidagi eng foydali jihati arzon ishchi kuchini eksport qilishi edi.

Xitoyning 1991-2001 yillardagi YIMning aholi jon boshiga miqdorini kuzatadigan bo'lsak, 10 yil ichida YIM aholi jon boshiga qiymati deyarli 3 barobarga oshganiga guvoh bo'lamiz.

1-jadval

Aholi jon boshiga YIM miqdori (AQSh dollari)

Yillar	1991	1992	1993	1994	1995	1996	1997	1998	1999	2000	2001
Xitoy	1091	1261	1453	1660	1861	2062	2267	2448	2652	2918	3210

Manba: <http://svspb.net/danmark/vvp-stran-na-dushu-naselenija.php>

Xitoyning JSTga a'zo bo'lishi natijasida:

Birinchiidan, ko'p millatli korporatsiyalarni jalb etadigan va jahon bozorida o'zini tiklash uchun jiddiy imkoniyatlarga ega bo'lgan yuqori texnologiyali sanoat biznesining eksportini yanada ko'paytirdi. So'nggi 10 yil ichida Xitoy Xalq Respublikasi iqtisodiyotining yuqori texnologiyali sektori o'zining rivojlanish bosqichidan o'tdi, raqobatbardoshlikni rivojlantirish va xalqaro bozor muammolariga javob bera oldi.

Ikkinchiidan, Xitoy eksportining an'anaviy mahsulotlarining hajmi (kiyim-kechak, poyabzal, mebel, o'yinchoq va o'yinlar, boshqa iste'mol tovarlari) o'sdi.

Bu ko'rsatkich Xitoy hamda "Osiyo yo'lbarlari" da (Malayziya, Tailand, Singapur, Indoneziya va boshqa mamlakatlarga eksport qilish) 2000 yilda 17,2 milliard dollar yoki umumiy tovar eksportining 6,9 foizini tashkil etdi.

Uchinchiidan, savdo xizmatlari sektori jadal rivojlandi - sayyohlik, transport, aloqa, kompyuter hamda axborot xizmatlari va boshqa xizmatlar. Xitoy Osiyoda

tijorat xizmatlarining uchinchi yirik eksporteri, Yaponiya va Gonkongdan keyin dunyoda 8-o'rinda turadi.

Ekspertlarning fikricha, Xitoyning JSTga kirishi iqtisodiy islohotlarni rivojlantirishda yangi bosqichni boshlab berdi.

**2-jadval**

**Mamlakatlarning jahon savdo aylanmasi hajmidagi ulushi (2011, 2030 yillar)**

Mamlakatlar	Savdo aylanmasi hajmi, trln.dollar		O'sish, %
	2011	2030	2011-2030
Xitoy	2,972	11,972	7,2
AQSh	3,224	5,827	3,0
Yaponiya	1,460	2,586	2,9
Hindiston	539	3,907	10,4
Korea	892	2,617	5,5
Braziliya	892	2,617	4,9

*Manba: China and the World Trading System // Policy Research Working Paper 5897. The World Bank, December 2011. P. 11.*

2030-yilga borib Xitoy tovar aylanmasi jahon savdo aylanmasidagi eng kata ulushga ega bo'lgan mamlakatga aylanadi va u bu ko'rsatkichda AQShni ham ortda qoldiradi. [7]

2. Shu bilan birga, JSTning ko'p tomonlama kelishuvlarini amalga oshirish doirasida mamlakatning moliyaviy tizimi va iqtisodiyoti uchun qiyinchiliklar yuzaga keldi. Jumladan, makro darajada ular nisbatan arzon import qilinadigan tovarlar bo'yicha deflyatsion bosim ostida qolishi, raqobatdosh bo'lmagan davlat korxonalarida ish bilan bandlikning qisqarishi, joriy to'lovlar balansining ortiqcha qisqarishi va moliyaviy boshqaruv tavakkalchiliklarini kuchaytiradigan kapital hisob-kitoblarning ko'payishi yuz berdi.

Xitoyning JSTga a'zo bo'lish arafasida ASEAN ekspertlar guruhi tomonidan tayyorlangan maxsus ma'ruzada, mamlakatdagi turli xil aholi guruhlarining daromadlar darajasida sezilarli bo'shliqni hisobga olgan holda, erkinlashtirish va raqobatni jadallashtirish ijtimoiy muammolarni yanada kuchaytirishi mumkinligi aytilgan edi. Jahon banking hisob-kitoblariga ko'ra, Xitoyda 16 milliondan 18 milliongacha bo'lgan fuqarolar ishlamaydi va qishloq joylarida ishsizlarni hisobga olgan holda, ularning umumiy soni 140 millionga yetadi. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligida ishlaydigan qariyb 100 million kishi mavsumiy asosda ishlaydi. Mamlakatning JSTga a'zo bo'lishidan eng ko'p zarar ko'rgan dehqonlardir. Taxminan 10 million kishi qishloqni tark etishga majbur bo'lgan. [2]

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar Strategiyasi"ning 3 chi ustuvor yo'nalishi borasida mamlakatimizda valyutani tartibga solish, tashqi savdo, bojxona va soliq qonunchiligini liberallashtirishda tubdan islohotlar amalga oshirilmoqda, bu o'z o'rnida O'zbekistonning JSTga kirishda qulay sharoit yaratib beradi.

2018 yilning 13 mart kuni O'zbekiston Respublikasining JSTga kirishini yangilash va O'zbekiston Respublikasi Tashqi savdo vazirligiga BMTning rivojlanish dasturi ko'magida texnik yordam ko'rsatishga jalb qilish masalasida Osiyo taraqqiyot banki(OTB), Jahon banki, Xalqaro rivojlanish bo'yicha AQSh agentligi (USAID),

O'zbekistondagi Yevropa Ittifoqi delegatsiyasi, Xalqaro hamkorlik bo'yicha Germaniya jamiyati (GIZ) va boshqa xalqaro tashkilotlar ishtirokida ishchi guruh yig'ilishi tashkillashtirildi.

Shuningdek, O'zbekistonning JSTga kirish jarayonini doimiy monitoring qilib borishda tizimli ishlarni tashkillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi, ushbu yo'l xaritasiga 34 ta tadbir kiritilgan bo'lib, ular tashkilotga kirishni yangilash borasida hujjatlarni tayyorlash va mamlakat qonunchiligini muvofiqlashtirishga qaratilgan.

Tashkilotga qo'shilishga bir necha yillar kerak bo'lishi mumkin. Bu jarayonni o'tish tayyorlov davri deyish mumkin. O'zbekiston tayyorlov davr mobaynida maksimal ravishda tashkilotga a'zo bo'lishning natijalarini baholash va analiz qilish uchun sarflaydi ya'ni, tashkilotga a'zo bo'lishning ijobiy tomonlari va bo'lishi mumkin bo'lgan xavf hamda ularni oldini olishda xavfsizlik choralarini ko'rish masalalarini o'rganadi. O'zbekistonning JSTga kirishida iqtisodga negativ ta'sirlardan qochish maqsadida, jarayonni iqtisodning alohida sektorlarining tayyorgarligini har tomonlama baholash, mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilarning har xil guruhlari va iqtisodni tartibga solishning hukumat mexanizmlari asnosida amalga oshirish ko'zda tutilgan. Mahalliy korxonalarining texnik va texnologik potentsialini yangilash, ishlab chiqarishda ilmiy-texnik ishlanmalarni joriy qilishda davlat ko'magini aktivlashtirish orqali ularning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha qator tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

#### Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Ammo O'zbekiston iqtisodiyotining ushbu jarayonga tayyor ekanligini tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagi xulosaga kelamiz.

Birinchi, 2009-2017 yillarda YIMning aholi jon boshiga dinamikasi bir tekis rivojlanmaganligi, 2017 yilda bu ko'rsatkich 1 491 AQSh dollarini tashkil etganligidir. O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi natijasida Xitoy tajribasida bo'lgani singari ishsizlar sonining ko'payib ketishiga hamda subsidiyalar asosida moliyalashtiriladigan mashinasozlik, dehqonchilik singari tarmoqlar ahvolidagi yomonlashishiga olib kelishi mumkin. Bu, eng avvalo, YIMning aholi jon boshidagi ulushida namoyon bo'ladi.

3-jadval

#### O'zbekistonda aholi jon boshiga YIM miqdori (AQSh dollari)

Yillar	2009	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017
O'zbekiston	1 231	1 393	1 631	1 741	1 908	2 052	2 124	2 094	1 491

Manba: <https://knoema.ru>

Ikkinchi, mamlakat yirik tarmoqlarining bu jarayonga tayyor emasligi. Yirik tarmoqlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning ichki bozor narxlarini tashqi bozor narxlaridan yuqori ekanligi. Bu hol yirik tarmoqlar raqobatbardoshligining tushib ketishiga olib kelishi mumkin.

Uchinchi, O'zbekistonning xalqaro mehnat taqsimotidagi ulushining yuqori emasligini hisobga olganda, nisbiy ustunligini ham yo'qotish ehtimolidan mavjudligi.

**Xitoy hamda O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishidagi imkoniyatlari**

<b>Xitoyning JSTdagi imkoniyatlari</b>	<b>O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishdagi imkoniyatlari</b>
Sayyohlik, turizmning rivojlanishi	Sayyohlik, turizmning rivojlanishi
Integratsiyalashuv imkoniyatlarining ortishi	Integratsiyalashuv imkoniyatlarining ortishi
Sekin-asta notarif cheklovlarning kamayishi	Sekin-asta notarif cheklovlarning kamayishi
Iqtisodiyotda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushining oshishi	Iqtisodiyotda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushining oshishi
Iqtisodiyotda davlat monopoliyasining qisqarishi	Iqtisodiyotda davlat monopoliyasining qisqarishi

Ammo keyingi tomondan o'ylaganda, iqtisodiyotni taraqqiy ettirish uchun bozor mexanizmlarini rivojlantirish, xususiyl sektorga imkoniyat yaratish, qo'shilgan qiymatli mahsulotlarni eksport qilish kerak bo'ladi. Bunday maqsadga erishishda esa mamlakatda tizimli islohotlarni o'tkazish katta rol o'ynaydi.

Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish ham bu borada muhim ahamiyat kasb etib, ishlab chiqarishni rivojlantirishda, eksportni o'stirish va kengaytirishda, bozor islohotlarini davom ettirish barqarorligini ta'minlashda yordam berishi mumkin. Texnik tartibga solish, bojxona ma'muriyatchiligi, xizmat sohasidagi qonunchilik bo'yicha institutsional islohotlar ishlab chiqarish, ilmiy-texnik rivojlanishning dunyo miqyosidagi jarayoniga integratsiyalashuv imkoniyatini tezlashtiradi va osonlashtiradi. JSTga a'zo bo'lish alohida korxonalariga berilgan hammaga bir xil bo'lmagan imtiyoz va tartiblarni bekor qilishni anglatadi. Xususiyl sektor haqqoniy qoidalar bo'yicha rivojlanadi.

Bundan tashqari, O'zbekistonning tashkilotga a'zo bo'lishi proteksionistik to'siqlar natijasidagi yuqori narxlarning tushishiga [10] hamda mavjud resurslardan unumli foydalanishda, mamlakatda raqobat muhitining kuchayishida, korrupsiyaning pasayishida hamda import kontrabanda tovarlarining qonuniyl yo'l bilan mamlakatga kirib kelishida ahamiyat kasb etadi.

Tashkilotga a'zolik yangi mahsulot va xizmatlar bo'yicha yangi standart, qoidalarni shakllantiradigan turli xalqaro tashkilot va bitimlarda ishtirok etishga yo'l ochadi. Mamlakatimizda dunyo mamlakatlariga eksport qilinadigan mahsulotlarning ishlab chiqarish sharoitini tug'diradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR(REFERENCES)**

1. Kanungo, A.K. China's Process of Accession to WTO: Obstacles and Challenges. F.R.E.I.T. Working Paper 510. 2009, available at: <http://www.freit.org/Workingpapers/TradepolicyMultilateral/FREIT510.pdf> (accessed: 13.12.2014)



2. Омуралиев Е.К. Мы получает огромное количество возможностей для расширения отношений. О вступлении КР в ВТО // АКИпресс. 1996 - № 36
3. Понкратова Л.А., Чжао Син. Внешняя торговля Китая: Особенности динамики и оценки структурных сдвигов. Национальные интересы: «Приоритетывосхищение», 2011, нет. 2 (95), pp. 44-53.
4. He, L., Fan, X. Foreign Banks in Post-WTO China An Intermediate Assessment. China & World Economy, 2004, vol. 12, no. 5, Pp. 3–16.
5. Pelicci, Jr. L.J. China and the Anti-Counterfeiting Trade Agreement – ACTA Faith, or ACT Futility?: An Exposition of Intellectual Property Enforcement in the Age of Shanzhai (山寨). Penn. St. J.L. & Int'l Aff, 2012, vol. 1 (1), PP. 121–156.
6. Ianchovichina, E., Martin, W. Economic Impacts of China’s Accession to the World Trade Organization. Euro’ean Review of Agricultural Economics, 2008, vol. 35 (3), PP. 303–330.
7. China and the World Trading System // Policy Research Working Paper 5897. The World Bank. Development Research Group. December 2011. PP. 4
8. <https://knoema.ru>
9. <http://svspb.net/danmark/vvp-stran-na-dushu-naselenija.php>
10. <https://www.gazeta.uz/ru/2018/01/22/wto/>
11. <http://www.uzbearingpoint.com/files/1/a31.pdf>
12. [http://www.iqtisodiyot.uz/sites/default/files/maqolalar/21\\_M\\_S\\_Yusupov.pdf](http://www.iqtisodiyot.uz/sites/default/files/maqolalar/21_M_S_Yusupov.pdf)
13. Jahon savdo tashkiloti rasmiy sayti ma’lumotlari [www.wto.org](http://www.wto.org)